



O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Baratova Dinora Alisherovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasи dotsenti
email: gulzoda20@mail.ru

Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 2-bosqich magistranti
email: yuldasheva.aziza20@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

ABSTRACT

Volume: 1

Issue: 8

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/i1

Maqolada hayot sug'urtasiga ta'rif va uning asosiy xususiyatlari, ijtimoiy himoyadagi o'rni haqida ma'lumot berilgan. Hayot sug'urtasiga tegishli bo'lgan soliq imtiyozlarining bekor bo'lishi natijasida sug'urtaga bo'lgan talabning tushib ketish ta'sirida hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarini tahlili va uni rivojlantrishi uchun taklif va tavsiya ishlab chiqilgan.

KEYWORDS

Sug'urta, sug'urta bozori, hayot sug'urtasi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovlar, sug'urta javobgarligi, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi, hayot sug'urta kompaniyalari, sug'urta klassalari

Kirish (Introduction/Введение).

Mamlakatimiz sug'urta bozorida 38ta sug'urta tashkiloti faoliyat yuritib, ularning 7tasi hayot sug'urtasiga ixtisoslashtirilgan. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ixtisoslashtirgani bilan o'ziga xosdir. Ahamiyatlari jihatida, sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoyalash maqsadida sug'urta xizmatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23 oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantrish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan 2022-yilning 1 iyulidan boshlab, barcha turdag'i sug'urta polislарini internet orqali onlays xarid qilish imkoniyatlari yaratilishi lozimligi belgilangan. Ushbu tizimning 2022-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, jami sug'urta mukofotlari hajmi 6,2 trillion so'mni tashkil etgan. Uning 76 foizi umumiy sug'urta, 24 foizi esa hayot sug'urtasi hissasiga to'g'ri keladi. Umumiy sug'urta mukofotlarining 10 foizi majburiy sug'urta badallari hisobiga shakklangan, qolgan 90 foizi ixtiyoriy sug'urta mukofotlarining ulushidir. 2021-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 16 foiz va 84 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar mamlakatimizda ixtiyoriy sug'urta klasslari ommabopligi oshib borayotganidan dalolat beradi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha mukofotlar hajmi YAIM ning 0,17 foizini tashkil etadi. Bu esa kishi boshiga o'rtacha 3,91 dollardan to'g'ri kelishimi bildiradi. Taqqoslaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich Qozog'istonda 31,24 dollarga, Turkiyada esa 21,85 dollarga yetadi. Umumiy sug'urta mukofotlari hajmi YAIM ning 0,52 foizini tashkil etadi va kishi boshiga o'rtacha 12,1 dollardan to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 58,5 dollarni, Turkiyada 119,7 dollarni tashkil qildi. Baxtsiz hodisalar va tibbiy sug'urta mukofotlari hajmi YAIM ning 0,01 foizini tashkil qildi va kishi boshiga o'rtacha 0,28 dollardan to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 10,1 dollarga, Turkiyada 24,5 dollarga teng. Bu esa ushbu sug'urta klasslarini rivojlantrishga alohida e'tibor berish lozimligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishimi ta'minlashga hamda aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan sug'urta

xizmatlarini faol rivojlantrish milliy sug'urta bozorida hayot sug'urtasining rolini kuchaytirishi taqozo etadi. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda aholining sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, hayot sug'urtasini ommalashtirish, hayot sug'urtasi xizmatlari turlarini kengaytirish, iste'molchilarining hayot sug'urtasi xizmatlari sifatidan qoniqishi darajasini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, milliy sug'urta bozorida istiqbolli chora-tadbirlar amalga oshirilmоqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab potensial sug'urta qildiruvchilarning hayot sug'urtasi haqida ma'lumotga ega emasligi va sug'urta kompaniyalariga nisbatan ishonchining pastligi, shuningdek, iste'molchilarining sug'urta xizmatlari sifatidan mammun emasligi ularning hayot sug'urtasini amalga oshirish qarorlaridan voz kechishlariga olib kelmoqda. Shu sababdan, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish orqali hayot sug'urtasi bozorini monitoring qilish, hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talabiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, ularning ta'sir darajasini aniqlash va baholash juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa, hayot sug'urtasi mahsulotlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili/ Анализ литературы по теме/Analysis of literature on the topic.

A.Temirkulov томонидан тайёрланган "Хаёт сугуртанинг ривожланишида хорижий тажриба ва уни Ўзбекистонда ривожлантиришганинг зарурити" номли мақоласида Хаётни сугурталашнинг жагарип бориладиган тури хаёддаги турли рискларни олдини олишдаги ўзгармас сугурта тури эканлигини таъкидланган. [1] М.Бекберганов ва А.Икрамовларнинг "Ўзбекистонда хаёт сугуртаси соҳасининг хозирги ҳолати ва унинг ривожланинг ўйлариг" номли мақоласида Хаёт сугуртаси инсонийт хаётида мухим ўрин тутувчи сугурta турларидан бири бўлиб, унинг ЯИМ даги улуши жуда ҳам кам миқдорни ташкил киласди бу микдорни кўтариш учун мамлакatda хорижий давлатларнинг тажрибасидан фойдаланиб, ривожланиш талаб этилади деб этироф этган. [2]. О.Юлдашевнинг "Хаёт сугуртасида таъриф сиёсатини такомиллаштириш ўйлари" номли мақоласида Хаёт сугуртаси узок

Maxsus son 2024

муддатли инвестицияларни молиялаштиришнинг асосий манбалардан бири бўлиб, мамлакатлар иқтисодиёти тарақиётининг ҳозирги босқичда энг муҳим инструментлардан бири хисобланади. [3] Д.Абдувалиевнинг “Хаёт сугуртасининг долгзарб масалалари” номли маколасида Хаёт сугуртаси мамлакатнинг ижтимоий химоясини ташкил килишида муҳим йўналишлардан бири хисобланади. Шунинг учун бу фаолиятни ривожлантириш учун хаёт сугуртаси бўйича агентлик фаолиятини ривожлантириш керак бўлади деб айтиб ўтган [4] М.Султонованинг “Хаёт сугуртаси моҳияти ва зарурятни” номли маколасида “Хаётни сугурталаш жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий эҳтиёжларини амалага оширишнинг муҳим воситалардан биридир” деб эътироф этган. [5]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanilgan usullar (Methods/Методы).

Тадқиқотни амалга оширишда қўйилган максадларни амалга оширишда мантикий ва таркибий таҳлил килиш, гурухлаштириш, иқтисодий-статистик таҳлил, ўзаро ва киёсий таққослаш усулларидан самарали фойдаланилди.

Olingan natijalar (Resulrs/Результаты).

Олиб борилган тадқиқодлар натижасида Ўзбекистон сугурта бозорида хаёт сугуртасининг ўрни ҳозирги ривожланиб келаётган мамлакатлар даражасига етиш учун муҳим таклифлар ишлап чиқилди. Шу билан бирга, бозорида хаёт сугуртасининг ривожланишига тўсиқ бўлаётган холатлар ҳамда уларни бартараф этиш йўллари асослаб берилган.

Tahillar (Analysis/Анализ).

Hayot sug'urtasi inson salomatligi va o'limi bilan bog'liq bo'lgan risklardan sug'urtalash bo'yicha majburiyatnari o'z zimmasiga oladi. Bu risklar bo'yicha aholini sug'urtalash, ko'rileyotgan zararlarni moliyalashtirish mamlakatimizdagi ijtimoiy himoya vazifasini bajarishda yetakchilik qilar edi. Iqtisodiyot va moliya vazirligining «Fuqarolar uchun byudjet – 2023» nashrida 2023 yil 1 apreldan soliq to'lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash uchun yo'naltiriladigan qismi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz bekor bo'ldi. Sug'urta bozoridagi bu o'zgarish hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarining ko'rsatkichi tushib ketishiga olib keldi. 2023 yil ko'rsatkichlariga ko'ra, jami sug'urta mukofotlari hajmi 8 trillion so'mni tashkil etgan. Uning 96 foizi umumiy sug'urta, 4 foizi esa hayot sug'urtasi hissasiga to'g'ri keladi. Hayot sug'urta tarmog'i bo'yicha talablar kamayib ketib, sug'urta tushumlari keskin tushib ketdi.(1 jadval)

1 jadval

| Hayot sug'urtasi bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar[6] | | | | |
|--|---------|--------|------|---------------------|
| | 2021 | | 2022 | |
| | 2021 | 2022 | 2023 | |
| Sug'urta mukofotlari | 3732024 | 717041 | 19% | 6231726 1524679 24% |
| Sug'urta to'lovlari | 1235061 | 616300 | 50% | 2596926 1498144 58% |
| | 2022 | 2023 | | 2023 |
| | | | | |

Jadval ma'lumotlariga ko'ra hayot sug'urtasining umumiy ko'rsatkichlari tahvil qilsak, quydagicha natijalarini olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. 3 yillik statistik ma'lumotlarga ko'ra hayot sug'urtasining sug'urta bozoridagi umumiy sug'urta mukofotlari uchun qabul qilgan sug'urta mukofotlari 19% ga, to'lovlariga nisbatan 50% tashkil qilgan. 2022 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mukofotlar bo'yicha 24%, to'lovlar bo'yicha 58% ma'lum bir miqdorga oshgan. Lekin 2023-yil natijalariga ko'ra bu ko'rsatkichlar, ya'ni sug'urta mukofotlari 4%, sug'urta to'lovlar 22% tashkil qiladi. Bu esa, 2023-yil bo'yicha sug'urta mukofotlari ko'rsatkichi 2022-yilga nisbatan 5 barobarga sug'urta to'lovlar bo'yicha 2 barobarga kamayib ketishiga olib keldi.

Agar sug'urta mukofotlari summalarini yillar kesimida bir biriga solishtirsak, 2023-yil bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari 2021-yilga nisbatan - 44% ga, 2022-yilga nisbatan -78.8 % ga keskin tushib ketkanligini ko'rsatadi.

Agar sug'urta to'lovlari summasi yillar kesimida bir biriga solishtirsak, 2023-yil bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari 2021-yilga -73.6% ga, 2022-yilga nisbatan -45% ga pasaygan.

Hayot sug'urtasining asosiy ko'rsatkichlarini klasslar kesimida oladigan bo'lsak, 2021-yilga nisbatan 2023-yil ko'rsatkichlari anchea tushib ketganligini ko'rishimiz mumkin. O'zingizga ma'lum hayot sug'urtasining rivojlantrish va isloh qilish bo'yicha yangi sug'urta klasslari tashkil etilgan edi. Bu klasslar bo'yicha ayrim klasslarning umuman hech qanday natijaga erishilmagan(2-jadval).

Bu jadvalda biz ixtiyoriy hayot sug'urtasi klasslarning 3 yillik statistikaga ko'ra 691344 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2023-yilga kelib

bu ko'rsatkich 248820 trln so'mni tashkil qilgan. Ya'ni -442524 trln.so'mga kamayib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich foiz ko'rinishida -36% ini tashkil qildi.

2-jadval

Hayot sug'urtasining klasslar bo'yicha ma'lumotlari[7]

| | Umumiy sug'urta mukofotlari | | | Sug'urta to'lovlari | | | Sug'urta majburiyatlar | | |
|---|-----------------------------|------|------|---------------------|------|------|------------------------|--------|------|
| | 2021 | 2022 | 2023 | 2021 | 2022 | 2023 | 2021 | 2022 | 2023 |
| Klasslar bo'yicha ixtiyoriy sug'urta, (hayotni sug'urta qilish sohasi), shu jumladan: | 6913 | 1497 | 2488 | 6077 | 1488 | 4278 | 1424817 | 1193 | 3548 |
| I klass - Hayot ya annuitetlar | 49 | 20 | 20 | 912 | 35 | 812 | 98 | 53 | 35 |
| II klass - Nikoh va tug'ilish | 21 | 1 | 1 | 1 | 29 | 3 | 54 | 21 | - |
| III klass - Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish | 3852 | 9766 | 1007 | 3775 | 9761 | 1246 | 2057 | 290288 | 1042 |
| IV klass - Sog'ligi sug'urta qilish | 700 | 25 | - | - | - | - | 6900 | 27000 | - |
| V klass - Majburiyatlarin ta'minlash uchun hayotni sug'uratalash | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| VI klass - Uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urta | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| VII klass - Kapitalini qaytarish bilan havoni sug'ertash | - | - | - | - | - | - | - | - | - |

Hayot sug'urtasini 1-klass bo'yicha umumiy sug'urta mukofotlari foizlarda ko'radigan bo'lsak 2021-yilga nisbatan 2022-yil +26.8% ni tashkil qilgandi. Lekin bu ko'rsatkich 2022-yilni 2023-yilga nisbatda -13.6% ga kamaygan.

Hayot sug'urta kompaniyalari ko'rsatkichlarining keskin ravishda o'zgarishi hayot sug'urtasi uchun berilgan imtizolarning yo'q bo'lishi va aholining sug'urta kompaniyalari xizmatlaridan foydalanishinbg asosiy maqsadi daromad solig'idan qo'chish bo'lgan.

3-jadval

Umumiy Hayot sug'urtasining mukofotlari[8]

| | 2021 | | | 2022 | | | 2023 | | | | | |
|--|--|--------|----------|--------|---------------------|--------|--------|--------|----------------------|---------|----------|--------|
| | Hayotni sug'urta qilish tarmog'ida sug'urta tashkilotlari, shu jumladan: | 717041 | 1 524679 | 322491 | - majburiy sug'urta | 25 696 | 26 766 | 35 645 | - ixtiyoriy sug'urta | 691 344 | 1 497912 | 286846 |
| | | | | | | | | | | | | |

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra majburiy sug'urta 2021 yilga nisbatan +72%ga oshgan. Ixtiyoriy sug'urta esa -41.5% ga kamaygani ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

Hayot sug'urtasining YAIM ulushi[9]

| | 2021 | 2022 | 2023 |
|--------|------|-------|-------|
| 1 YAIM | 0.1% | 0.17% | 0.03% |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki hayot sug'urtasi YAIMdag'i ulushi brogan sari pasayib borib umuman yo'q bo'lib ketish ehtiromi yo'q emas. Bu ko'rsatkichlar sug'urta kompaniyalarning to'lov qobiliyatini ham pasayib ketishiga olib keladi. Biz bilamizki hayot sug'urtasi davlatning ichki investitsiyalarini shakllantirishda yetakchilik qiladigan faoliyat turi hisoblanadi. Xorij tajribasiga ko'ra hayot sug'urtasi O'zbekiston sug'urta bozoriga nisbatan sezilarli darajada farq qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda hayot sug'urtasining o'mi O'zbekiston sug'urta bozoriga nisbatan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin bu davlatlarning kompaniya faoliyati yaxshi tashkil qilinganligi va hayot sug'urtasining bo'lgan talabning yuqori ekanligidan dalolat. O'zbekistonda 2022-yilgi natijalarga ko'ra hayot sug'urtasi YAIMda 0.17% ni tashkil qildi. Bu esa bir nechta Osiyo va rivojlangan mamlakatlarga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak holat achinarli hollarda ekanligidan dalolat. Misol uchun Singapur davlatida 8.07% ni, Germaniyada 3.1% va eng yuqori ko'rsatkich bilan Buyuk Biritaniya 10.51% ni tashkil qildi. Bu davlatlarda sug'urtaga bo'lgan talabning yuqori ekanligidan dalolat. Bu esa O'zbekistonda Hayot sug'urtasining holati sezilarli darajada past ekanligini ko'rsatib beradi.[10] Bu sanab o'tilgan davlatlarda ham Hayot sug'urtasining yuqori ekanligiga sabab imtizolarning saqlab qolganligidir va bu imtizolanzning bekor bo'lmagan jozi badorligini saqlab qolganligi natijasida sug'urta maxsulotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega va bunga talab yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Maqola bo'yicha xulosa va tafkiflar (Conclusions/Заключения).

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni inobatga olgan holda, milliy va xorijiy tajribalar asosida mamlakatimiz hayot sug'urtasi xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollariga baho berish, hayot sug'urtasi sohasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni va ularning ta'sir darjasini aniqlash, hayot sug'urtasini rivojlantrish bilan bog'liq fundamental muammolarni topish hamda ularni hal etishga qaratilgan

Maxsus son 2024

takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kun tartibidagi eng dolzarb masala ekanligi shubhasizdir.

O'zbekiston sug'urtasi bozorida Hayot sug'urtasiga bo'lgan talabning yuqorida jadvallar ko'rshimiz mumkinki, shartnomalar bo'yicha ham, sug'urta mukofotlarining tushumlari bo'yicha ham to'lovlar majburiyatlar bo'yicha ham 2023-yilga ko'ra kompaniyalar faoliyat yurtishmagan. Deyarli natija ko'rsatishmagan barcha ko'rsatkichlar oldingi yillarga nisbatan salbiy holatida ya'ni kompaniyalarning mana shu faoliyat bo'yicha 0 natijaga ega ekanligini ko'rib turibmiz. Bu holat natijasida sug'urta bozorida hayot sug'urtasining butunlay yo'qolib ketishiga va bu o'zining jozibadorligini yo'qotishiga olib kelmoqda. Hayot sug'urtasining umumiyl xususiyatini bozordan yo'qolib ketishiga olib keladi. Shu bilan birga kompaniya hodimlari o'sha joyda ishlaydigan hodimlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha ham kompaniyalar ma'lum bir yetakchilik qilib kelmoqda edi. Bu imtiyozning yo'qolishi sug'urta bozoridagi hodimlarning ishsizligiga olib kelishiga ham sabab bo'lib qolmoqda. Va davlat tomonidan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan aholiga bo'lgan harajatlarinining sug'urta kompaniyalarining yordamisiz amalga oshirishga to'laqonli sharoit yaratilayotganligi va bu insonlarni o'lim holati kelganda moddiy yordam shakkantirish faqat davlat va davlatga tegishli bo'lgan idora va tashkilotlarning zimmasida qolib ketayotganligiga to'g'ri keladi. Ya'ni davlat ijtimoiy yordam himoyasini yanada kuchaytirishi kompaniyalarining yordamidan foydalanmagan holda amalga oshirayapti. Va yana shu bilan birga hayot sug'urta kompaniyalarini shakkantirilgan sug'urta rezervlari hisobidan ya'ni hayot sug'urtasi bo'yicha kelib tushadigan sug'urta mukofotlaridan shakkantirgan rezervlar O'zbekiston Respublikasi ichki investitsiyalarini shakkantirishga yordam berar edi. Bu holat ham deyarli yo'qolib bormoqda. Buning natijasi shuni ko'rsatadi kompaniyalar umumiy sug'urtaga doir bo'lgan birinchi va ikkinchi klass bo'yicha faoliyat ko'rsatish bilan kifoyalaniq qolmoqda. Shu bilan birga 108-qarorga ko'ra ish beruvchining javobgarlik sug'urtasi hayot sug'urtasiga ixtiyoriga

o'tish ya'ni sug'urta maxsulotini amalga oshirishga bo'lgan ruxsatni tegishi bu ham baribir umumiyl sug'urta mexanizimiga tegishli bo'lgani va hayot sug'urta kompaniyalari hayot sug'urtasi tarmog'ida emas balki, kompaniyalar to'laqoli umumiyl sug'urta kompaniyasi tarmog'i asosida faoliyat olib boradigan kompaniyalarga aylanib bormoqda. Buning natijasida hayot sug'urtasi butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

Shunday muammolarga yechim sifatida

1.Hayot sug'urtasi bilan bog'liq imtiyozlarni tiklash.

2.hayot sug'urtasi bilan bog'liq shartnomalarning electron platforma asosida nazorat qilish.

3.Davlat daromad solig'ining kelib tushmasligi natijasida zarar ko'rmasligi uchun jismoni shaxslarning olayotgan oylik moashlarining hayot sug'urtasiga yo'naltiradigan qismiga cheklovlar qo'yish.

4.hayot sug'urta kompaniyalarining investitsion obektlarini kengaytirish ya'ni yuqori daromad beruvchi obiektlarga pul mablag'larining yo'naltirilishini keng yo'lga qo'yish.

5. Aholining turmush darajasini yanada oshirish maqsadida, inflatsiya omillaridan himoya qiladigan uzoq muddatli pensiya sug'urtasini rivojlantirish;

6. Hayot sug'urtasi kompaniyalarining tijorat banklari bilan hamkorlikda hayot

sug'urtasi mahsulotlarini aholi orasida keng targ'ib etish mexanizmlarini joriy etish

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etishimiz hayot sug'urtasini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hayot sug'urtasini rivojlantirish aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy ahvolini yaxshilash va davlat ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Hayot sug'urtasi bo'yicha kelib tushadigan sug'urta mukofotlarining hajminig kengayishi davlat ichki investitsiyalarining hajmi kengayishiga olib keladi.

References:

- 1 A.Temirqulov "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent 2022 yil 27 iyun
- 2 M.Bekberganov va A.Ikromov "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent 2022 yil 27 iyun
- 3 O.Yuldashev "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent 2022 yil 27 iyun
- 4 D.Abduvaliyev "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent 2022 yil 27 iyun
- 5 M.Sultonova "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent 2022 yil 27 iyun
- 6 O'zbekiston respublikasi istiqbolli loyihiilar milliy agentligi rasmiy sayti <https://napp.uz/ru/pages/malumot>
- 7 Iqtisodiyot va moliya vazirligining «Fuqarolar uchun byudjet – 2023» nashrida 2023 yil 1 aprel
- 8 O'zbekiston respublikasi istiqbolli loyihiilar milliy agentligi rasmiy sayti <https://napp.uz/ru/pages/malumot>
- 9 Valiyeva, S. O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARASINI OSHIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH YO'LLARI. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 27–30. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/96>
- 10 Baratova, D., & Olmosova, M. (2023). SUG'URTALOVCHILARNING INVESTITSION FAOLIYATINI BAHOLASHDA XITOY TAJRIBASI. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 35–38. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/67>

..